

**O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARI TARIXIDAN**  
**Ro‘zimurodov Ilyos Azamat o‘g‘li – Xalqaro Nordik universiteti musiqa**  
**ta’limi kafedrasi katta o‘qituvchisi**

1. O‘zbek xalq cholg‘ulari ijrochiligiga bir nazar

O‘zbek xalq cholg‘ulari ijrochilik san’ati uzoq o‘tmishdan paydo bo‘lib, ularning ildizlari qadim-qadim zamon va davrlarga borib taqaladi. Xalq cholg‘ularidagi hozirgi ijrochilik san’ati o‘zi bosib o‘tgan taraqqiyotning ko‘p asrlig an’analarini meros qilib oldi. Eramizning birinchi asrlariga oid manbalar - tarixnavislar asarlari, badiiy adabiyot namunalari hamda O‘zbekiston arxeologlari tomonidan topilgan qadimiy yodgorliklar va asori atiqalar, jumladan cholg‘ulari va ularni cholg‘u ijrochilari tasvirlangan devorlarga chizilgan badiiy tasvirlar, haykalchalar va boshqa ko‘rgazmalar bundan dalolat beradi. Bu yodgorliklarda tasvirlangan cholg‘ularning ko‘pchiligi keyingi asrlarda ham ishlatilganligi haqidagi ma’lumotlar O‘rta asr olimlari Abu Nasr Farobiy (X asr), Abdullo Xorazmiy (X asr), Abu Ali Ibn Sino (XI asr), Abu Rayhon Beruniy (XII asr), Abdurahmon Jomiy (XV asr) va boshqa mutafakkirlarning musiqaga oid risolalarida uchraydi. Ulug‘ o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy (1441-1501) asarlarida ud, tanbur, chang, rubob, qobuz, g‘ijjak, rud, nay, surnay, karnay, daff (yoki doyra) kabi o‘rta asrlarda keng rasm bo‘lgan cholg‘ularning nomlari qayd etiladiki, ularning ko‘pi bizgacha deyarli o‘zgarishsiz yetib kelgan. Bu cholg‘ular o‘z tuzilishi, tasviriy vositalarining xarakterli xususiyatlari hamda ijrochilik uslublariga qarab, asosan uch guruhga bo‘linadi: 1. Urub ijro etiladigan musiqa cholg‘ulari (doyra, nog‘ora, safoil, qoshiq va boshqalar); 2. Puflab ijro etiladigan musiqa cholg‘ulari (nay, surnay, bo‘laman, qo‘shnay, karnay); 3. Torli cholg‘ular (qo‘biz, g‘ijjak, sato, tanbur, dutor, do‘mbira, afg‘on rubob, qashqar rubob, ud, chang). Bu cholg‘ularning har biri ijro etiladigan asar xususiyatlariga qarab yakka yoki ma’lum ansamblida qo‘llaniladi. Bizda azaldan juda keng tarqalgan cholg‘ularidan biri bu doyradir. Unda usullar cholg‘u va ashula kuylariga jo‘r bo‘lib ijro etiladi. Yakka doyrada, ikki yoki undan ko‘p doyralarda raqslarga, ansambl va orkestrlarga jo‘r bo‘ladigan usullarda ijro etiladi. Usullar esa o‘z tuzilishi jihatidan ma’lum kuy xususiyati va ashulada foydalaniladigan she‘r vazniga bog‘liqdir. Har bir asarlardagi jo‘r bo‘lish jarayonida ijro etiladigan usullar, ma’lum tuzilmalardan iboratligi, ijro etilayotgan kuy asar tugaganiga qadar deyarli o‘zgarmasdan ko‘p marta takrorlanaveradi. Faqatgina ayrim musiqiy asarlardagina usullar o‘zgaruvchan bo‘lib, yangilari bilan almashinib turadi. Nog‘ora sozining usullari esa asosan marosim va turmushdagi tantanalarda ijro etiladi, bunday usullar ijro jarayonida albatta karnay, surnay sozlari bilan hamkorlikda birga ijroda jo‘r bo‘ladi. Boshqa turli ansambllar dastalarida nog‘ora va doyralar bilan birga qoshiq, safoil va qayroq ham ishlatiladi. 8 O‘zbek xalq cholg‘ularining ko‘pchiligi boshqa Sharq xalqlari ijodidida ham mavjud bo‘lib, ularda ham katta o‘rin egallaydi. Jumladan nay,

surnay, bo‘lamon sozlari shular jumlasiga kiradi. Lekin, bu sozlarni ishlatishda har bir milliy musiqada o‘ziga xos bo‘lgan farqli jihatlar mavjud. Nay sozining ovozi deyarli kuchli va shu bilan birga ma‘lum darajada mayin hamdir. Imkoniyatlari esa juda keng bo‘lib, har qanday murakkab bo‘lgan kuylarni ham ijro etishda imkoniyatlar mavjud. Nayda asosan lirik xarakterli musiqiy asarlar, unda ijro etiladigan turli qochirimlar, nolishlar va boshqa musiqiy bezaklar kuyga o‘zgacha jon bag‘ishlaydi. Nay sozi murakkabligi bilan cholg‘u ijrochisidan katta mahorat talab etadi-ki, unga maxsus tayyorgarliklar ko‘rish hamda biror ustozga shogird tushish bilangina yaxshi natijalarga erishish mumkin. Qo‘shnay sozini ijro etish, uni o‘rganish ham xuddi boshqa cholg‘ular kabi ma‘lum ustozga shogird tushishdan boshlanadi. Qo‘shnay sozida ijro etiladigan kuylar ham, uning ijrodagi imkoniyatlaridan kelib chiqib, ijrochidan juda puxta tayyorgarlik ko‘rilgan holda maqsadga erishish talab etiladi. O‘ziga xos birmuncha ko‘plab xususiyatlari bilan qo‘shnayga yaqin cholg‘u - bu bulamondir. Lekin, tuzilishi hamda tashqi ko‘rinishi jihatidan bulamon butunlay boshqa turdagi cholg‘u sozi bo‘lib, surnayga ham o‘xshab ketadi. Surnay cholg‘uining ijro etish xususiyatlari boshqa cholg‘ulardan juda ko‘p jihatlari bilan ajralib turadi. Puflab ijro etiladigan o‘zbek milliy cholg‘ulari orasida muhim o‘ringa ega bo‘lganlardan yana biri bu – karnaydir. O‘z tuzilishi va ijrodagi imkoniyatlarining cheklanmaganligi, faqatgina oktava oralig‘idagi 5, 6 ta tovushnigina ijro eta olishi bilan farqlanadi. Karnay sozi yakka kuy ijro etadigan cholg‘ulardan emas. Lekin karnay tovushlari cholg‘uning o‘ziga xos boy, baland va keng tembrda bo‘lib, ancha salmoqli badiiy o‘ringa ega. Karnay sozi surnay va nog‘oralar bilan birgalikda guruh bo‘lib turli tomosha, sayl va tantanalarda ijro etiladigan sozlardandir. Karnay soziga butunlay qarama-qarshi o‘laroq, juda past eshitilar - eshitilmas ovozga ega bo‘lgan changqo‘bizdir. Bu soz azaldan “xonaki” cholg‘ulardan hisoblanib, xotin-qizlarning o‘zaro uchrashuvlarida yoki qizlar majlislarida chalingan. Bu sozni xotin-qizlar yakka-yakka bo‘lib yoki birgalashib ijro etishgan. O‘zbek musiqa madaniyatiga XIX asr oxirlarida Orenburg orqali Rossiyadan garmon keltirilgan va cholg‘u ko‘p joylarda ijro etila boshlangan. O‘sha vaqtlarda garmonni Farg‘ona, Buxoro va Xivada uchratish mumkin edi. Hozir esa faqat Xorazmda xotin-qiz xalfalar xalq ashula va laparlarini qo‘lida garmon bilan ijro etadigan asosiy cholg‘ulardan biri bo‘lib qoldi. Garmon xalfalar tomonidan ashulaga doyra bilan jo‘r qilinib, asosiy o‘rinni raqs kuylari egallaydi. Shu bilan birga torli cholg‘ular o‘rnida ham foydalaniladi. O‘zbek xalq cholg‘ulari ijrochiligida mizrobli torli cholg‘ular chertib ijro etiladigan va kamonli cholg‘ular turlariga bo‘linadi. Torli cholg‘ular asosan “xonaki” hisoblansada, uzoq o‘tmishdan bugungi kungacha katta evolyusiyaga ega bo‘lib tantanalarda, ommaviy yig‘inlarda, 9 bazmlarda ijro etilib kelingan, ayrim torli cholg‘ular esa yakkaxon ashulachilarning ajralmas jo‘rovozi bo‘lib xizmat qilgan. Kamonli cholg‘ular - qo‘biz, g‘ijjak, sato - o‘z tuzilishi, ijro imkoniyatlari, tembrlari bilan alohida ajralib turadi. Qo‘biz o‘tmishda Qoraqalpog‘iston va bevosita

qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz ellari yashayotgan xududlarda, shahar va qishloqlarda juda keng qo'llanilgan, hozirgi paytda qoraqalpoq xalqining eng sevimli va milliy musiqa cholg'usi sifatida aholi orasida sevib ijro etiladi. Bu cholg'ular ayni paytda qoraqalpoqlarda, qozoq va qirg'izlarda juda keng qo'llanilib hattoki takomillashtirilib, zamonaviy xalq cholg'ulari orkestrlarida juda muhim o'rin egallab kelmoqda. Ko'pgina sharq xalqlarida juda keng tarqalgan g'ijjak 3-4 simli bo'lib, ushbu sozni ayrim joylarda kamon deb ham yuritishadi. G'ijjakning eng qadimiy namunalari ikki simli bo'lgan. Hozirgi g'ijjakning keng tarqalgani to'rt simli bo'lib, ijro etilishdagi o'z imkoniyatlari ma'lum darajada skripkaga yaqin. Shuning uchun ham ayrim ijrochilar g'ijjak o'rniga skripkadan foydalanishadi. Kamon bilan ijro etiladigan cholg'ulardan yana biri, bu – Sato cholg'usidir. Bu soz o'z ijro imkoniyatlarining boyligi hamda ovozining yoqimli tembrga ega ekanligi bilan yaqqol ajralib turadi. Sato o'zining tashqi ko'rinishi hamda tuzilishi bilan ko'p jihatdan tanburga o'xshaydi. Satoda ham xuddi tanbur kabi 17 ta parda boylangan uzun dastasi, noksimon shakldagi kosaxonasi bo'lib, ijro etiladigan simi 3-4 tadir. Sato sozidan asosiy simlari ostidan o'tkazilgan 11-12 ta rezonans beruvchi, ya'ni akssado berib turadigan simlar bor. Kosaxonasi tanburnikiga nisbatan kattaroq va kosa devorlari yuqaroq. Ijro etish uslublari, ijro etilishdagi imkoniyatlari tanburga nisbatan butunlay boshqacha. Satoda vazmin kuylar tanlanib, ular kamonda xuddi qo'biz va g'ijjakdagi kabi cho'ziq ovoqli, nozik, xilma-xil holda ta'sirchan mahoratli ijro etilishi, shu bilan birga satoda ijro etish ma'lum darajada murakkab ekanligini inobatga olib bu cholg'ularda mohir sozandalargina ijro etgan. Torli chertma cholg'ular orasida do'mbira sozi professional musiqamiz janrlari bilan butunlay bog'lanmagan bo'lib aksincha, keng omma orasida, ayniqsa Surxondaryo, Qashqadaryo vohalarida hamda Samarqand, Toshkent viloyati, Jizzaxda keng tarqalgan musiqa cholg'usidir. O'zbek do'mbiralari dutordan kichikroq bo'lib, uning dasta qismi silliq, ya'ni tovush pardalari bo'lmaydi. Qozoq do'mbiralari dastasida esa aksincha, boylangan pardalar bo'ladi va tuzilishi jihatidan biroz ajralib turadi. Do'mbirada ikkita qo'shnay, ya'ni naydan yasalgan torlar o'tkazilgan bo'ladi. Xuddi dutorga o'xshab har ikkita tori birgalikda ijro etiladi. Shuning uchun ham do'mbirada chalingan kuylar ikki ovoqli bo'lib, birinchi torda ijro etiladigan kuy bilan unga jo'r bo'lib ikkinchisim ham ovoz chiqaraveradi. Shuning uchun ham do'mbirada ijro etiladigan kuylarning tuzilishi o'zgacharoq. Bunday cholg'ular cho'ponlar orasida keng tarqalgan bo'lib, respublikamizning asosan ikki janubiy viloyatida cheklanganligi yaqqol sezilib turadi. Respublikamizda juda keng miqyosda tarqalgan, chertib ijro etiladigan torli cholg'ular orasida dutor sozining alohida o'rni bor. 10 Dutor o'z tuzilishi va ijro etilish uslublari bilan ma'lum ta'lim darajasida do'mbiraga o'xshab kesada, butunlay boshqa tusdagi cholg'u sifatida namoyondir. Dutorning kosaxonasi do'mbira cholg'usidan kattaroq, dastasi deyarli uzun bo'lib, unga pardalar bog'langan, chertish hamda o'ng qo'l barmoqlari vositasida erishiladigan nolish va qochirmalar tufayli kuylarning

g'oyat ta'sirchan bo'lishiga erishadi. Chertib ijro etiladigan torli cholg'ular orasida o'zining tashqi ko'rinishi hamda katta korpusi, kalta va yo'g'on dastasi hamda ovozinig o'ziga xos tembri bilan afg'on yoki buxoro rubobi ajralib turadi. Bu soz ilgari tarixda Buxoroda keng tarqalgan bo'lib, O'zbekistonning boshqa shaharlarida deyarli bo'lmagan. Buyuk sharq mutafakkirlarining merosi haqida xalq cholg'ularini o'rganish sohasida ham tarixiy qimmatga ega bo'lgan ma'lumotlar talaygina. Jumladan, Abu Nasr Muhammad Farobiyning mashhur asari "Musiqqa haqida katta kitob" ("Kitob al-musiqqa al-kabir") ulkan ahamiyatga ega. O'rta asr olimi bu kitobida ikki xil musiqqa ijrochiligini – ohangni inson ovozi (qo'shiq san'ati) va cholg'ular vositalari bilan qayta tiklashga ajratadi. Farobiy o'z davrida mohir ijrochi sifatida musiqqa cholg'ularining jamiyat hayotidagi rolini o'rganishga katta ahamiyat beradi va u "Jangu-jadallarda, raqslarda, to'y-tomoshalarda, ko'ngilochar bazmlarda hamda ishq muhabbat qo'shiqlarni kuylashda ijro etiladigan o'ziga xos cholg'ular bor", - deb yozgan edi. Odatda ijro etiladigan musiqqa asarining janr xususiyatlari va vazifalariga qarab ma'lum cholg'u tanlanadi. Shu kerakli cholg'u ansambli ham xuddi shunday, balki bundan ham jiddiyroq tartibda sozlar tanlanadi. Ansambllar tuzilishining o'zi ham ma'lum bir qonuniyatga asoslangan bo'lib juda ko'p turlarni tashkil etadi. O'zbek xalq cholg'ulari ansamblidan xalq cholg'ulari orkestrigacha bo'lgan evolyusion izlanishlar samarasi ularoq xalq cholg'ulari ansambllari – o'zbek musiqqa san'atida uzoq zamonlardan beri turli-tuman vazifalarni bajarib keladi. Cholg'ularni ma'lum ansambllar dastasiga jalb etish esa qadimiy an'analardagi kabi har birining xarakterli xususiyatlariga asoslanadi. O'rta asr mashhur olimi Abu Nasr Farobiy (870- 950) o'zining musiqqa haqida yozgan katta ilmiy asari (Kitob al-Kabir almusiqiy) da ijrochilik masalalari va ansambllar tuzish qonuniyatlari to'g'risida fikr yuritib, birgalashib ijro etish uchun yaxshisi rubob bilan bir-biriga yaqin ikkita va ayni vaqtda bir-birini o'zaro boyitadigan, to'ldiradigan cholg'ularni tanlash kerakligini aytadi. Farobiy tavsiya etgan boshqa cholg'u ansambllari – ud va rubob; ud va tanbur; rubob, nay va doyra kabilar ham yuqorida qayd etilgan qoidalarga asoslangan. Bugungi kunga kelib ansambllar juda katta bosib o'tgan yo'lga ega bo'lib, o'z ijodiy evolyusion tarixiga ega. O'zbekistonda 1920-1930 yillarga kelib o'ziga xos xalq cholg'ulari ansambllari shakllana boshladi. Bu vaqtda dastlab tuzilgan ansambllar bir ovozli, ya'ni unison tarzda ijro etilar edi. Ijro maktabining shakllanib takomillashuvi, davr talabining oshishi, tomoshabinlar sinovidan o'tish birlamchi bo'lib qoldi. Mashg'ulotlarni musiqachi sozanda guruhlarga bo'linib, ustoz – shogird 11 an'analarga ko'ra og'zaki tarzda o'rgatilib, rejaga asosan bunday mashg'ulotlarda ustoz ijro etar, shogird uni takrorlab xotiraga oladi. Cholg'u tembrining rang-barangligi, ijrochilik imkoniyatlarining turli tumanligidan qat'iy nazar an'anaviy milliy orkestrning repertuari unison kuylarnigina ijro etish bilan cheklangan edi. Bir me'yorda temperatsiya etilgan tovushqatorga ega bo'lmaganligi, shuningdek, bu orkestrda yo'g'on ovozli registrni tashkil etadigan

cholgʻularning yoʻqligi, mavjud registrlarning bir zaylda boʻlganligi uchun turli janrlardagi koʻpovozli boʻyoqlar ishlatilgan asarlar ijro etishdan, binobarin, oʻz repertuarini boyitishdan mahrum etardi.